



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Aholi Ish Bilan Bandligining Statistik Tadqiqi

**Arzikulov Otabek Ali o'g'li**

Dotsent, Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston

**Salohiddinova Madina Akmal qizi**

Talaba, Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston

### Annotatsiya

Mazkur tezisda uy xo'jaliklarini tanlab kuzatish ma'lumotlariga asoslangan holda aholining ish bilan bandligini o'rganish va Bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari xodimlari tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar va natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi bandligi, Bandlikka ko'maklashish markazlari, aholi punktlari, bosqichma-bosqich tanlash, mehnatga layoqatli yoshlar, so'rovnoma.

Aholini ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlari aholining ish bilan ta'minlanishiga bog'liq. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolotining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

Ommaviy jarayonlarni statistika jihatidan organish, ya'ni aholining ish bilan bandligini o'rganish uy xo'jaliklarini tanlab kuzatish ma'lumotlariga asoslanadi. Uy xo'jaliklarini so'rovi Bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari xodimlari tomonidan har chorakning oxirgi oyi ikkinchi o'n kunligi mobaynida o'tkaziladi. So'rov o'tkaziladigan uy xo'jaliklarini tanlash har bir tuman bo'yicha ma'lumotlarning representativligini ta'minlaydigan bo'lishi zarur. Tanlov uy xo'jaliklarining kamida bir foizini so'rov bilan qamrab oladi. Uy xo'jaliklari so'rovi Davlat statistika qo'mitasi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan maxsus so'rovnoma bo'yicha amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklarini so'rovi Bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari tomonidan tuman (shahar) hamda statistika bo'limlari bilan birgalikda o'tkaziladi va bu ish to'rt bosqichdan tashkil topadi:

**a) birinchi bosqichda** har bir tuman bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan uy xo'jaliklari soni aniqlanadi;

**b) ikkinchi bosqichda** uy xo'jaliklari o'rganiladigan aholi punktlari aniqlanadi, bunda:

➤ tanlab olingan aholi punktlari yonma-yon chegaralarga ega bo'lmashligi kerak;

- tuman markazlari va ulardan yiroqda joylashgan aholi punktlari majburiy tartibda o'rganilishi kerak;
- har bir tumanda kamida 5 ta aholi punkti (tuman markazi ham shu jumlagi kiradi) o'rganilishi kerak;
- har bir shaharda yonma-yon chegaralarga ega bo'lmagan kamida 5 ta mahalla o'rganilishi kerak.

**c) uchinchi bosqichda** har bir aholi punktida o'rganilishi kerak bo'lgan uy xo'jaliklari soni aniqlanadi;

**d) to'rtinchi bosqichda** aholi punktlarida (mahallalarda) mavjud bo'lgan uy xo'jaliklari ro'yxatlari asosida o'rganilishi kerak bo'lgan uy xo'jaliklarining aniq ro'yxati aniqlanadi.

Tanlab olingan uy xo'jaliklarining mehnatga layoqatli yoshdagi barcha a'zolari so'rab chiqilishi kerak, ular hozir bo'lmagan taqdirda esa, hozir bo'lmagan uy xo'jaliklari a'zolariga tegishli javoblarni uy xo'jaligining boshqa vakolatli a'zosidan olinadi.

So'rovni amalga oshirgan xodimlardan uy xo'jaliklari so'rovining to'ldirilgan so'rovnomalarini qabul qilish Bandlikka ko'maklashish markazining ishga joylashtirishga muhtoj bo'lgan aholini hisobga olish va ular bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish bo'limi boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish maqsadida har bir viloyatda Monomarkazlar ishga tushirildi va unda **113 ming nafar ishsiz aholi kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi.**

2024-yilning 1-avgust kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida erishilgan natijalar va kelgusidagi rejalar" mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari Ra'no Turdiboyeva, vazirlik tuzilma rahbarlari hamda vazirlik tarkibidagi tashkilotlar mas'ullari ishtirok etdi. Qayd etilganidek, mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5%dan 2024-yil boshiga kelib 6,8%ga tushdi. Kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17%dan, 2023-yilda 14% va 2024-yil boshiga kelib 11%ga tushdi.

Respublikada har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar ko'rilmogda.

### Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni

Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	33413	34478	37958	40248	47697	50157	53782	60462	71627
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1040	1051	1134	1031	1233	1302	1222	1124	1394
Andijon viloyati	1416	1279	1413	1397	1560	1702	1441	1708	1582
Buxoro viloyati	1315	1417	1428	1506	1693	1770	1801	1979	1826
Jizzax viloyati	465	563	636	731	1012	1113	832	597	672
Qashqadaryo viloyati	891	785	887	927	1152	1052	1243	1248	1407
Navoiy viloyati	1059	1003	1112	1219	1175	1328	1247	1040	1031
Namangan viloyati	1049	989	1086	1234	1303	1491	1538	1511	1458
Samarqand viloyati	1222	1143	1364	1503	1603	1871	1973	1973	2538
Surxondaryo viloyati	735	758	855	855	1063	1031	1007	1073	1067
Sirdaryo viloyati	686	624	624	211	721	776	666	718	934
Toshkent viloyati	1518	1472	1746	1865	1933	2713	2727	2793	3048
Farg'ona viloyati	2338	2661	1959	2341	2442	2661	2212	2430	2605
Xorazm viloyati	925	873	1015	1039	1133	1205	1186	1304	1469
Toshkent shahri	18754	19860	22699	24389	29674	30142	34687	40964	50596


Aholini ish bilan ta'minlashning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa mazmunlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi:

- ✓ ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish;
- ✓ qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini ko'paytirish;
- ✓ iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish;
- ✓ mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash;
- ✓ qishloq aholisining mehnat daromadlarini ko'paytirish;
- ✓ ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish, sifatli va xolis baholash, ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar, aholi bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017- yil 24- maydagi PQ- 3001- son qarori qabul qilindi. Qaror bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarish yo'lga qo'yilgan:

- Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansining prognoz parametrlariga muvofiq ta'lim muassasalarida kadrlarni kasbga tayyorlash yo'nalishlarini takomillashtirish va ularga tuzatishlar kiritish;
- Aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlarni ishga joylashtirish hududiy va tarmoq dasturlari ko'rsatkichlarini shakllantirishda mehnat resurslari, bandlik va aholini bandligini ta'minlash dasturi loyhasini har yili 1 oktabrgacha bo'lgan muddatda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

Iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan band bo'lganlar soni Davlat statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida aniqlanadi.



Xulosa qilib aytganda, statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistondagi iqtisodiy o'sish barqaror ish o'rinlari va bandlik sonining ko'payishi bilan yonma- yon yurmagan. Shu jumladan yuqoridagi jadvallarda ayollar, erkaklar, rasmiy va norasmiy sektordagi bandlik, ishsizlik va iqtisodiy faollik darajasini o'rgandik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'rtasida bandlik darajasi pastligi ayollarning iqtisodiy faolligining pastligi bilan bog'liq. Norasmiy sektorda bandlar rasmiy sektorda bandlarga qaraganda ancha yuqorini ko'rsatmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasining yuqori darajasi O'zbekistondagi mehnat bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Soatov N.M., Nabiev X., Nabiev D., Tillaxo‘jaeva G.N., Statistika. Darslik. - T.: TDIU, 2011.
2. SHodiev X. va Xabibullaev I. Statistika bo‘yicha praktikum. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012.
3. Arzikulov O. ECONOMIC-STATISTICAL ANALYSIS OF THE REGIONAL DEVELOPMENT OF SMALL ENTERPRISES AND MICRO-FIRMS IN THE CONDITIONS OF ACCELERATED ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – S. 92-105.
4. Arzikulov O. A. Artificial intelligence to increase the efficiency of small businesses //ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (100). – 2021. – S. 412-415.
5. Arzikulov O. A. THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN DEVELOPED COUNTRIES //Ekonomika i sotsium. – 2019. – №. 12. – S. 30-33. Ali o‘g‘li A. O. RAQAMLI IQTISODIYOTNING JADALLASHUVIDA JIZZAX VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ASOSIY JIHATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – S. 94-96.
6. Ali o‘g‘li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER). – 2022. – T. 10. – №. 6. – S. 30-33.